YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL, OKTYABR / VI MAXSUS SON

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 307 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 24-oktyabrda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 9
Yunusov Xudoynazar Beknazarovich

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA MUNOSABATLARI VA INVESTITSION AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 11
Egamberdiyeva Salima Rayimovna

KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH FOYDA KO‘RSATKICHLARINI 2029-YILGACHA PROGNOZI 20
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI 23
Kurbanov Ziyat Niyazovich

ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА И ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ 28
Н. Бердимурат, А. Бердимурат

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI RISKLARGA YO‘NALTIRILGAN HOLDA TASHKIL ETISH 34
Alikulov Abdimo‘min Ismatovich, Ruzieva Elvira Abdulmitovna, Rakhimova Umida Rabbimovna

CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 “QISHLOQ XO‘JALIGI” STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 40
Alikulov A.I., Sayfiyev S. S., Karimov I.Sh.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASHNING ZARURATI 47
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 50
Fayziyev Oybek Raximovich

CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 57
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVISNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 63
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich

QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI 68
Amaniyazov Rinat Bayniyazovich

MINTAQAVIY BOG‘DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (Samarqand viloyati tumanlari misolida) 74
Akbarov Husan O‘zbekxonovich

SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 79
Azimova Hulkar Egamberdiyevna

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING TEXNOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA METODOLOGIYASIGA TA’SIRI 86
Mardonov Mamed Shavkatovich

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR HAMDA JOZIBADOR INVESTITSION MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI 89
Raxmatov Jonibek Ismoil o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SAMARQAND VILOYATIDA MAISHIY XIZMATLARNI RIVOJANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA OID TAVSIYALAR 96
Navruzbek Azimjonovich Rajabov

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING TAHLILI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI 99
Saparov Murod Irgashovich

O‘ZBEKISTONDA SAVDO VA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI TARAQQIYOTINING ILMIY ASOSLARI VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 102
Jurakulov Shoxrux Baxtiyorovich

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 108
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich

INNOVATSION AGROTEXNIK TADBIRLAR (XOMTOK VA BARG SONINI BOSHQARISH) ASOSIDA MAYIZBOP UZUMCHILIKDA BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 114
Abdurasulov Otabek Abdurasul o‘g‘li, Mahmudova Fotima Erkin qizi

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 117
Ishturdiev Hasan Abdugapparovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ БИОЛОГИЧЕСКОВ АКТИВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ 121
Изатиллаева Комила, Эшмурадов Улугбек Ташмуратович

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY YO‘NALISHLARI 128
Raximova Umida Rabbimovna, Vahobov Diyor Husan o‘g‘li, Mardonova Parizoda Ziyodullayevna, Djuraqulov Sherali Abdullayevich

O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVI ASOSLARI 133
Razikov Otabek Rustamovich

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 137
Raximova Umida Rabbimovna, Qodirberganova Tabassum Ro‘zimboy qizi, Xazratqulov Firdavs Firuzovich, Qadamboyev Mirxandbek Xamidjon o‘g‘li

LIMON MEVASINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI TUZUKLAR 140
N.Mamatkulov, Ochilova Marg‘uba

KICHIK BIZNESNI EKSPORTGA OLIB CHIQISH: AMALIY STRATEGIYALAR VA HAYOTIY TAJRIBALAR 143
R. T. Qudratov, A. X. Sodiqov

FERMER XO‘JALIKLARIDA SOTISH JARAYONLARI HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 147
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Abdunazarova Sevinch

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 154
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BIZNES-JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 159
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

G‘ALLA YETISHTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHNING HOZIRGI HOLATI 165
Sh.X. Yuldashev, S.S. Nematilloyev

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 171
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROTIDA OZBEKISTONDA ISHSIZLARGA YANGI ISH ORINLARINI YARATISH 177
Nazarova M.Sh., Berdikulov Ravshan, Nematullaev Ozodbek, Xasanov Rizo

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 181
Шадиева Гулнора Мардиевна

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 185
Saparov Murod Irgashovich

SUT CHORVACHILIGIDA MAHSULOT TANNARXINI OMILLI VA MARJINAL TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 189
Abduganieva Dildora Bobir qizi, Alikulov Abdimo‘min Ismatovich

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA TA’MINOT JARAYONI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 195
Ishturdiev Xasan Abdigapparovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 200
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi

ПИЩЕВЫЕ ОТХОДЫ И СТРАТЕГИИ БОРЬБЫ С НИМИ 214
Казакова Зулайхо Салахиддиновна, Хотамова Юлдуз Юнусжоновна, Авалбаева Самира Кахрамон кизи, Ахророва Малохат Аброр кизи

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR BO‘YICHA ICHKI NAZORAT VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 221
Raximova Umida Rabbimovna, Jumaniyazova Munisa Jamoliddin qizi, Xoliqberdiyev Firdavs Ilhamovich, Nafasov Og‘abek Bobirjon o‘g‘li

KORXONALARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TANNARXINI IAS 2 STANDARTI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH VA UNING AUDITORLIK TAHLILI 225
To‘xtayev Zafar Mamatqulovich, Omonov Sindorbek G‘ayrat o‘g‘li, Abdusalomov Jasurbek Abdukarim o‘g‘li

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA BAHOLASH VA AMORTIZATSIYA USULLARI: XALQARO VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI 229
Azzamova Dinora Xolmumin qizi

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 232
X. Axmedov, S. Karimov, M. Raxmonova, G. B. Narziyeva

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕСА 237
Р. С. Макашева, А. Бердимурат, Азизова София, Акимова Милан

ИНВЕСТИЦИИ, ИННОВАЦИИ И РЕБРЕНДИНГ КАК ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА 242
Шадиева Гулнора Мардиевна

SAMARQAND VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘IDA KLASTER TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI 246
Roziyeva Gulhayo Choriyevna

PAXTA YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI 254
Z.N.Ishniyazov

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 257
G. B. Narziyeva, Baxriddinov Samandar, Jumayev Azamat

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA MILLIY IQTISODIY ISLOHOTLAR: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA STRATEGIK MOSLASHUV 262
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Yaxshiliqov Jo‘raqul Rahmiddin o‘g‘li, Napasov Aslonbek Asqar o‘g‘li

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 267
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Tursunov Samad Dilshod o‘g‘li, Tog‘aymurodov Sorbon Suhrob o‘g‘li, Eshqulov Murodjon O‘tamurod o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

FAOL TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING ASOSLARI 274
Baxtiyorov Mexro‘zxon Baxtiyorovich, Salamov Ibroxim

УЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ 279
Бердимурат Н., Сапарбай А., Қырықбай Қ.

СИСТЕМА НАЛОГОВ И СБОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ВЕКТОР РАЗВИТИЯ 286
Бахтиярова Севинчой Абдиязовна, Султонбоева Севинчой Азизбековна

AKVAKULTURA: TABIIY-IQLIM SHAROITLAR, BALIQ YETISHTIRISH USULLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI 289
Urdushev Xamrakul, Rabbimova Parvina Askar qizi

БИОЛОГИЧЕСКИЕ АКТИВЫ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА 293
Кураленко Алина, Эшмурадов У.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 298
Туякбаева Жазира, Таженова Хурлиман, Ш. Юлдашев

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA JAVOBGARLIK MARKAZLARI SEGMENTAR HISOBOTLARINING XUSUSIYATLARI 301
Alikulov G‘olib Abdimuminovich

UO‘K: 338.46:004
JEL: L80, L86, O33, O53

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ochilova Mohigul Toshtemir qizi
SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti
mohigulochilova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va O‘zbekiston amaliyoti tizimli tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning xizmatlarga ta’siri to‘rt kanal (savdo qilinuvchanlik, masshtablanuvchanlik va platformalashuv, unumdorlik va sifat, qiymatni birgalikda yaratish) orqali talqin qilinib, Jahon bankining «3C» yondashuvi (ulanuvchanlik, raqobat muhiti, salohiyat) ishonch omili bilan to‘ldirilgan «4C» tahliliy modeli taklif etilgan. Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank, BMT, Jahon banki, UNDP va UNCTAD ma’lumotlari asosida 2025-yilda xizmatlar yalpi qo‘shilgan qiymatning 48,6 foizini (YaIMning ≈46,5 foizini, muallif hisobi) tashkil etgani, AKT xizmatlarining ulushi 2024-yildagi 2,3 foizdan 2,7 foizgacha oshgani, mamlakat BMT elektron hukumat indeksida 2024-yilda 63-o‘ringa ko‘tarilgani ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, bilimtalab xizmatlarning bandlikdagi ulushi pastligi, xizmatlar savdosidagi cheklovlar, raqamli ko‘nikmalar tanqisligi va venchur kapitalning kamligi asosiy to‘siqlar sifatida aniqlangan; elektron hukumat indeksi o‘sishi deyarli to‘liq telekommunikatsiya infratuzilmasi hisobiga ta’minlangani isbotlangan. Natijalar asosida huquqiy-institutsional, infratuzilmaviy, moliyaviy, kadrlar va tarmoq yo‘nalishlaridagi takliflar hamda 2030-yilgacha indikativ stsenariylar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot; xizmatlar sohasi; raqamli xizmatlar; xizmatlar eksporti; elektron tijorat; fintex; elektron hukumat; IT Park; JSTga a’zolik; O‘zbekiston.

Abstract: The article examines the theoretical foundations and Uzbekistan’s practice of developing the services sector under the conditions of the digital economy. The effects of digital technologies on services are interpreted through four channels (tradability, scalability and platformisation, productivity and quality, value co-creation), and an analytical “4C” model is proposed that extends the World Bank’s “3C” approach (connectivity, contestability, capabilities) with a fourth factor — confidence (trust). Drawing on data from the National Statistics Committee, the Central Bank, the United Nations, the World Bank, UNDP and UNCTAD, the study shows that in 2025 services accounted for 48.6% of gross value added (about 46.5% of GDP, author’s estimate), that the share of ICT services rose from 2.3% in 2024 to 2.7% in 2025, and that Uzbekistan moved up to 63rd place in the UN E-Government Development Index in 2024. At the same time, the low share of knowledge-intensive services in employment, restrictions on services trade, a shortage of digital skills and scarce venture capital are identified as the main constraints; a decomposition of the index shows that its improvement was driven almost entirely by telecommunication infrastructure rather than by the quality of online services or human capital. On this basis, proposals are formulated for the legal-institutional, infrastructure, financial, human-capital and sectoral dimensions, together with indicative scenarios up to 2030.

Key words: digital economy; services sector; digitally deliverable services; services trade; e-commerce; fintech; e-government; IT Park; WTO accession; Uzbekistan.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы и практика развития сферы услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики. Влияние цифровых технологий на услуги интерпретируется через четыре канала (торгуемость, масштабируемость и платформизация, производительность и качество, совместное создание ценности), и предлагается аналитическая модель «4С», дополняющая подход Всемирного банка «3С» (связность, конкурентная среда, компетенции) четвёртым фактором — доверием. На основе данных Национального комитета статистики, Центрального банка, ООН, Всемирного банка, ПРООН и ЮНКТАД показано, что в 2025 г. на услуги приходилось 48,6% валовой добавленной стоимости (около 46,5% ВВП, расчёт автора), доля ИКТ-услуг выросла

с 2,3% в 2024 г. до 2,7% в 2025 г., а по Индексу развития электронного правительства ООН страна в 2024 г. поднялась на 63-е место. Вместе с тем в качестве ключевых ограничений выявлены низкая доля знаниеёмких услуг в занятости, ограничения торговли услугами, дефицит цифровых навыков и нехватка венчурного капитала; декомпозиция индекса показывает, что его рост обеспечен почти полностью телекоммуникационной инфраструктурой, а не качеством онлайн-услуг или человеческим капиталом. На этой основе сформулированы предложения по правовому, инфраструктурному, финансовому, кадровому и отраслевому направлениям, а также рассчитаны индикативные сценарии до 2030 г.

Ключевые слова: цифровая экономика; сфера услуг; цифровые услуги; экспорт услуг; электронная коммерция; финтех; электронное правительство; IT Park; вступление в ВТО; Узбекистан.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) va bandlikning yetakchi tarmog‘iga aylandi, raqamli texnologiyalar esa uning ichki mantig‘ini — xizmatni ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish va uning uchun haq to‘lash usullarini — tubdan o‘zgartirmoqda. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning raqamli yetkaziladigan xizmatlar eksporti tarixda ilk bor 1 trillion AQSH dollaridan oshgan; jahon bo‘yicha bu ko‘rsatkich 4,5 trillion dollarga yetib, xizmatlar eksportining 56 foizini tashkil etgan, eng kam rivojlangan mamlakatlarda esa bu ulush atigi 20 foizdir [18]. Demak, raqamli xizmatlar savdosi imkoniyati global miqyosda mavjud, biroq undan foydalanish darajasi mamlakatlar o‘rtasida keskin farq qiladi.

O‘zbekistonda xizmatlar sohasi so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylandi: 2025-yilda YaIM 7,7 foizga o‘sganda xizmatlar 8,5 foizga ko‘paydi va o‘sishga 3,9 foiz punkt hissa qo‘shdi, ya’ni YaIM o‘sishining yarmidan ko‘pi (≈51 foiz, muallif hisob-kitobi) xizmatlar hisobiga ta’minlandi [19, 21]. Shu bilan birga, Jahon banki tahlillariga ko‘ra, xizmatlar bandlikning yarmini ta’minlasa-da, mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan bilimtalab xizmatlar (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kasbiy xizmatlar, moliya) ulushi juda kichik, xizmatlardagi ish o‘rinlarining qariyb 60 foizi esa chakana savdo va transport kabi past malakali yo‘nalishlarda to‘plangan [13]. Bu holat tadqiqot muammosini belgilaydi: xizmatlar sohasi miqdor jihatdan tez o‘syapti, biroq uning sifat jihatdan — unumdorlik, eksportboplik va texnologik murakkablik jihatidan — o‘zgarishi raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani bilan cheklanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi yana bir holat bilan kuchayadi: 2026-yilda xizmatlar sohasi uchun muhim bo‘lgan bir qator institutsional o‘zgarishlar bir vaqtda sodir bo‘ldi. «O‘zbekiston–2030» strategiyasi 2026–2030-yillar uchun yangilandi va uning ijrosi raqamli monitoring platformasiga o‘tkazildi [3]; shaxsiy ma’lumotlarni saqlash tartibi liberallashtirildi [4, 29, 30]; sun’iy intellekt (SI) bo‘yicha dastlabki huquqiy va axloqiy qoidalar kuchga kirdi [4, 5]; Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zolik bo‘yicha muzokaralar yakuniy bosqichga yaqinlashdi [28]. Ana shu «siyosiy oyna» sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini aniqlash nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi — raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi rivojlanishining nazariy-metodologik asoslarini umumlashtirish, O‘zbekiston misolida joriy holat va to‘siqlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash hamda ilmiy asoslangan rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- raqamli iqtisodiyot va raqamli xizmatlar tushunchasini hamda ularning xizmatlar sohasiga ta’sir kanallarini nazariy jihatdan asoslash;
- 2021–2026-yillardagi rasmiy va xalqaro ma’lumotlar asosida xizmatlar sohasi va uning raqamli segmentlari (axborot-kommunikatsiya xizmatlari, to‘lovlar, elektron tijorat, elektron hukumat, turizm) dinamikasini tahlil qilish;
- Jahon bankining «3C» yondashuviga asoslangan, muallif tomonidan kengaytirilgan «4C» modeli bo‘yicha rivojlanish to‘siqlarini aniqlash;
- 2030-yilgacha indikativ stsenariylarni hisoblash va rivojlantirish yo‘llari xaritasini taklif etish.

Tadqiqot obyekti — O‘zbekiston Respublikasining xizmatlar sohasi; predmeti — uning raqamli transformatsiyasi jarayonida shakllanuvchi iqtisodiy, institutsional va kadrlar munosabatlari.

Tadqiqot gipotezasi: hozirgi bosqichda O‘zbekistonda raqamli xizmatlar o‘sishi texnik infratuzilmadan ko‘ra ko‘proq institutsional omillar (bozorga kirish va ma’lumotlar rejimi), kadrlar salohiyati va moliyalashtirish imkoniyatlari bilan cheklanadi.

Ilmiy yangilik quyidagilardan iborat: (a) Jahon bankining «3C» modeli ishonch (confidence) omili bilan to‘ldirilib, «4C» tahliliy modeliga aylantirildi; (b) 2025–2026-yillardagi ma’lumotlar, sun’iy intellekt va JST bo‘yicha islohotlar xizmatlar sohasi nuqtai nazaridan yagona tizimda baholandi; (c) BMT elektron hukumat indeksining tarkibiy dinamikasi orqali «infratuzilma — onlayn xizmat sifati — inson kapitali» nomutanosibligi ko‘rsatildi; (d) AKT xizmatlari ulushi va IT eksporti bo‘yicha 2030-yilgacha indikativ stsenariylar hisoblandi. Amaliy ahamiyati — natijalardan «Raqamli O‘zbekiston–2030» va «O‘zbekiston–2030» strategiyalari doirasidagi sohaviy dasturlarni, shuningdek, JSTga a’zolik bo‘yicha xizmatlar majburiyatlarini shakllantirishda foydalanish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha yagona umumqabul qilingan ta’rif mavjud emas. R. Bukht va R. Heeks uni uchta konsentrik doirada ko‘rishni taklif qiladi: asosiy (core) doira — raqamli, ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori; tor ma’nodagi doira — raqamli xizmatlar va platforma iqtisodiyotini qamrab oluvchi raqamli iqtisodiyot; keng ma’nodagi doira — raqamli texnologiyalar bilan «raqamlashtirilgan» butun iqtisodiyot (elektron biznes va tijorat, «Industriya 4.0», aniq dehqonchilik, algoritmik, ulashish va gig-iqtisodiyot) [7]. Xizmatlar sohasi uchun bu tasnifning ahamiyati shundaki, xizmatlarning raqamli transformatsiyasi uchala doirada ham kechadi: AKT xizmatlarining o‘zi (asosiy doira), platformalar orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar (tor doira) hamda an’anaviy xizmatlarning — savdo, turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatishning — raqamlashtirilishi (keng doira).

Xalqaro savdo statistikasida esa «raqamli yetkaziladigan xizmatlar» tushunchasi qo‘llaniladi: bu — axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali masofadan yetkazib berish mumkin bo‘lgan xizmatlar bo‘lib, ularni o‘lchash uslubiyoti OECD, JST, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va UNCTAD tomonidan tayyorlangan «Raqamli savdoni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma»da bayon etilgan [12]. UNCTAD aynan shu tasnifdan foydalanib, rivojlanayotgan mamlakatlar eksporti 2023-yilda 1 trillion dollardan oshganini qayd etgan [18].

V. Baumolning «nomutanosib o‘sish» modeliga ko‘ra, mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati cheklangan «turg‘un» xizmatlarda (ta’lim, sog‘liqni saqlash, shaxsiy xizmatlar) xarajatlar nisbiy ravishda ortib boradi va iqtisodiyotning umumiy o‘sish sur’ati sekinlashadi [6]. Raqamli texnologiyalar bu mantiqni ikki yo‘nalishda o‘zgartiradi: bir tomondan, ular ko‘plab xizmatlarni standartlashtirish, avtomatlashtirish va masofadan ko‘rsatish imkonini berib, «turg‘un» xizmatlar doirasini qisqartiradi; ikkinchi tomondan, xizmatni ko‘rsatish va iste’mol qilishning bir vaqtda sodir bo‘lishi (ajralmaslik) cheklovini yumshatib, xizmatni saqlash, takror ishlab chiqarish va sotish imkonini beradi.

A. Goldfarb va C. Tuckerning «Raqamli iqtisodiyot» sharhiga ko‘ra, raqamli texnologiyalar beshta xarajatni — qidiruv, nusxalash (replikatsiya), tashish, kuzatish va tekshirish xarajatlarini — pasaytiradi [8]. Xizmatlar uchun bu ayniqsa muhim: qidiruv va tekshirish xarajatlarining kamayishi (reyting, sharhlar, elektron identifikatsiya, elektron imzo) ishonchsizlik tufayli cheklangan bozorlarni ochadi; nusxalash xarajatining nolga yaqinlashishi esa dasturiy ta’minot, onlayn ta’lim, kontent kabi xizmatlarning deyarli cheksiz masshtablanishini ta’minlaydi.

G. Grossman va E. Rossi-Hansbergning «vazifalar savdosi» (trading tasks) nazariyasi xizmat ko‘rsatish jarayonini alohida vazifalarga ajratish va ularni chegaradan tashqarida bajartirish mumkinligini ko‘rsatadi; vazifalarni masofadan bajartirish xarajati kamaygan sari offshoring kengayadi va mamlakat ichida «unumdorlik effekti» yuzaga keladi [9]. Dasturlash, dizayn, buxgalteriya, mijozlarga xizmat ko‘rsatish (kol-markaz) va boshqa biznes jarayonlarini tashqi pudratga berish (BPO) aynan shunday vazifalar savdosining amaliy ko‘rinishidir.

J.-C. Rochet va J. Tirolning ikki tomonlama bozorlar nazariyasi platformalarni (to‘lov tizimlari, marketpleyslar, buyurtma va yetkazib berish ilovalari) ikki guruh foydalanuvchini bog‘lovchi institut sifatida talqin qiladi; unda tarmoq effektlari va narx tuzilmasi hal qiluvchi, shu sababli raqobat siyosatining an’anaviy vositalari platformalarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan qo‘llanishi lozim [10].

S. Vargo va R. Luschning xizmat ustuvor mantiqiga (service-dominant logic) ko‘ra, iqtisodiy almashinuvning asosi — bilim va ko‘nikmalarni boshqalar manfaati uchun qo‘llash, ya’ni xizmatdir; tovar esa xizmatni yetkazib berish vositasi, qiymat esa iste’molchi bilan birgalikda yaratiladi [11]. Raqamli muhitda bu g‘oya ayniqsa dolzarb: ma’lumotlar, ochiq dasturiy interfeyslar (API) va platformalar qiymatni birgalikda yaratishning yangi resurslariga aylanadi.

Yuqoridagi nazariyalarni umumlashtirib, raqamli transformatsiyaning xizmatlar sohasiga ta’sirini to‘rt kanal orqali ifodalash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Raqamli transformatsiyaning xizmatlar sohasiga ta’sir kanallari[1]

Kanal	Mexanizm	Nazariy asos	O‘zbekistonda kuzatiladigan ko‘rsatkichlar
1. Savdo qilinuvchanlik	Xizmatni masofadan yetkazib berish imkoni uni ichki bozor bilan cheklangan holatdan eksportbop holatga o‘tkazadi; vazifalar savdosi kengayadi	[9, 12, 18]	IT va raqamli xizmatlar eksporti; turizm xizmatlari eksporti; BPO hajmi
2. Masshtablanuvchanlik va platformalashuv	Nusxalash, qidiruv va tekshirish xarajatlari pasayadi; ikki tomonlama bozorlar va tarmoq effektlari yuzaga keladi	[8, 10]	Elektron tijorat hajmi; karta va terminal orqali to‘lovlar; marketpleyslar
3. Unumdorlik va sifat	Avtomatlashtirish va standartlashtirish «turg‘un» xizmatlarda xarajatlarning nisbiy o‘sishini yumshatadi	[6, 8]	Xizmatlar bo‘yicha unumdorlik; bilimtalab xizmatlar bandligi ulushi; elektron davlat xizmatlari
4. Qiymatni birgalikda yaratish va ma’lumotlar	Ma’lumotlar, API va platformalar foydalanuvchi bilan birgalikda yangi xizmatlar yaratish resursiga aylanadi	[11]	Ma’lumotlar rejimi; ochiq API; «OneID» foydalanuvchilari

Manba: muallif tomonidan keltirilgan nazariy manbalar asosida umumlashtirilgan.

Bu kanallar o‘z-o‘zidan ishlamaydi — ular institutsional muhit orqali o‘tadi. Jahon banki O‘zbekiston xizmatlar sohasi uchun uch omilni ajratadi: ulanuvchanlik (connectivity), raqobat muhiti va bozor ochiqligi (contestability) hamda salohiyat, ya’ni malaka (capabilities) [13, 14]. Muallif ushbu «3C» modelini to‘rtinchi omil — ishonch (confidence) bilan to‘ldirishni taklif qiladi: raqamli xizmatlar bozori foydalanuvchi ma’lumotlari, to‘lovlar va algoritmik qarorlarga nisbatan ishonchsiz shakllana olmaydi. Ishonch omili ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik, iste’molchi huquqlari va sun’iy intellekt etikasini qamrab oladi. Natijada «4C» modeli quyidagi to‘rt guruhdan iborat bo‘ladi: ulanuvchanlik, raqobat muhiti, salohiyat va ishonch. Tadqiqotning keyingi qismlarida aynan shu model asosida to‘siqlar tasniflanadi va rivojlantirish yo‘llari tizimlashtiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik va qiyosiy tahlil, me’yoriy-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili, indikativ stsenariy hisob-kitoblari hamda SWOT tahlil usullaridan foydalanildi. Ma’lumot manbalari uch guruhga bo‘linadi: (1) rasmiy statistika va davlat organlari ma’lumotlari — Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank, Turizm qo‘mitasi, vazirliklar; (2) xalqaro tashkilotlar tahlillari — Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (UN DESA), UNCTAD; (3) me’yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning yuridik sharhlari.


Tadqiqot cheklovlari ochiq qayd etiladi. Birinchidan, 2025-yil va 2026-yil ma’lumotlarining bir qismi dastlabki (taxminiy) xarakterga ega. Ikkinchidan, ayrim ko‘rsatkichlar turli obyektlarni o‘lchaydi: masalan, «IT Park» rezidentlarining xizmatlar eksporti butun mamlakat bo‘yicha AKT xizmatlari eksportiga teng emas, aholi punktlari bo‘yicha aloqa qamrovi aholi bo‘yicha qamrovdan farq qiladi. Uchinchidan, ayrim ma’lumotlar rasmiy statistikaga tayanuvchi ommaviy axborot vositalari orqali olindi; imkon bo‘lgan joyda ular birlamchi manba bilan solishtirildi. To‘rtinchidan, reklama xarakteridagi materialdagi (Ozon haqidagi homiylik maqolasi) ko‘rsatkich faqat rasmiy ma’lumot bilan solishtirish orqali tekshirilgan holda keltirildi [33]. Beshinchidan, shaxsiy ma’lumotlar va sun’iy intellekt bo‘yicha 2026-yilgi qonunlarning ayrim qoidalari ikkilamchi (yuridik sharh) manbalar orqali o‘rganildi, shu sababli rasmiy matn bilan solishtirish tavsiya etiladi [4, 5]. Oltinchidan, yangilangan strategiyaning (2026–2030) raqamli yo‘nalishdagi miqdoriy maqsadlari ushbu maqolada alohida tahlil qilinmadi; faqat tekshirilgan ko‘rsatkichlar keltirildi [3]. «Muallif hisob-kitobi» deb belgilangan ko‘rsatkichlar manbalardagi raqamlar asosida hisoblangan hosilaviy qiymatlardir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekiston YaIM 1 849,7 trln so‘mni (o‘rtacha kurs bo‘yicha ≈147,1 mlrd AQSH dollari) tashkil etib, 7,7 foizga o‘sdi. O‘sishga xizmatlar 3,9 foiz punkt, sanoat 1,7, qurilish 1,0, qishloq xo‘jaligi 0,8 va mahsulotlarga sof soliqlar 0,3 foiz punkt hissa qo‘shdi (1-rasm) [19, 21]. Xizmatlar ichida eng yuqori sur’atlar savdo, yashash va ovqatlanish (12,0 foiz) hamda transport, saqlash, axborot va aloqa (14,5 foiz) tarmoqlarida qayd etildi; bozor xizmatlari hajmi 1 050,3 trln so‘mga yetib,

1 Manba: Muallif ishlanmasi.

14,7 foizga oshdi, shu jumladan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 22,7 foizga ko‘paydi va bozor xizmatlari o‘sishiga 1,5 foiz punkt hissa qo‘shdi (1-rasm) [19].




1-rasm. 2025-yilda YaIM o‘sishiga tarmoqlar hissasi (foiz punkt)[2]

Xizmatlarning iqtisodiyotdagi ulushi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlarida xizmatlar yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) tarkibida 48,6 foizni, sanoat 26,8, qishloq xo‘jaligi 17,3 va qurilish 7,3 foizni egalladi; YaQQ YaIMning 95,6 foizini tashkil etgani sababli xizmatlarning YaIMdagi ulushi ≈46,5 foiz bo‘ladi (muallif hisob-kitobi) [20]. Taqqoslash uchun, Jahon banki 2023-yil uchun xizmatlarning YaIMdagi ulushini 43,9 foiz deb baholagan [13]. 2025-yil birinchi choragida xizmatlar ulushi 56,1 foizni tashkil etgani qayd etilgan [22]; chorak ma’lumotlarida qishloq xo‘jaligi mavsumiyligi tufayli ulush yillik o‘rtachadan yuqori chiqishi mumkinligini hisobga olish zarur, shu sababli yillik va choraklik ko‘rsatkichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirish noto‘g‘ri.

Bandlik va unumdorlik. Hukumat xizmatlarni yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish, investitsiya va eksportning asosiy manbai deb hisoblaydi va sohani «O‘zbekiston–2030» strategiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilagan [15]. Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, xizmatlarning bandlikdagi ulushi 1991-yildagi 37 foizdan 2022-yilda 50 foizgacha oshgan va 2010-yildan beri taxminan shu darajada barqaror turibdi; xizmatlardagi ish o‘rinlarining qariyb 60 foizi chakana savdo va transport kabi past malakali yo‘nalishlarda joylashgan, moliya, AKT va kasbiy xizmatlar esa unumdorlik jihatidan sanoatdan ikki baravardan ko‘proq yuqori bo‘lsa-da, xizmatlar bandligining atigi 4–5 foizini tashkil etadi [13, 14]. Bu «tarkibiy paradoks»ni ifodalaydi: o‘sish asosan unumdorligi nisbatan past tarmoqlarda sodir bo‘layotgan bir paytda, yuqori unumdorlikdagi raqamli va bilimtalab xizmatlar hali kichik bazada.

Raqamli segment. AKT xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi 2021-yildagi 1,6 foizdan 2022-yilda 1,8 foizga, 2023-yilda 1,9 foizga [16], 2024-yilda 2,3 foizga va 2025-yilda 2,7 foizga oshdi [20]. Nisbiy ulushning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 2021–2025-yillarda ≈14,0 foizni tashkil etadi (muallif hisob-kitobi; 2-rasm). Ikki manbadagi ko‘rsatkichlar metodologik jihatdan bir xil deb faraz qilinadi — bu tahlil cheklovlaridan biridir. UNDP ma’lumotiga ko‘ra, AKT sektorining YaIMdagi hissasi 2023-yilda 2,1 foizni tashkil etgan (2-rasm) [16].



2-rasm. AKT xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi, 2021–2025-yillar (%)[3]

2 Manba: [19, 21] ma’lumotlari asosida muallif tuzgan (dastlabki ma’lumotlar).
3 Manba: 2021–2023-yillar — [16]; 2024–2025-yillar — [20]. Ikki manba metodologiyasi bir xil deb faraz qilingan.

Asosiy ko‘rsatkichlar 2-jadvalda jamlangan (2-jadval).

2-jadval. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi va raqamli segmentlarning asosiy ko‘rsatkichlari[4]

Ko‘rsatkich	Qiymat	Davr	Manba
YaIM o‘sishi	7,7% (1 849,7 trln so‘m; ≈147,1 mlrd AQSH dollari)	2025	[19, 21]
Xizmatlar o‘sishi va YaIM o‘sishiga hissasi	8,5%; 3,9 foiz punkt	2025	[19]
Xizmatlarning YaQQ va YaIMdagi ulushi	48,6% (YaQQda); ≈46,5% (YaIMda, muallif hisobi)	2025	[20]
Bozor xizmatlari hajmi	1 050,3 trln so‘m (+14,7%)	2025	[19]
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari o‘sishi	+22,7%	2025	[19]
AKT xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi	2,7% (2024-yilda 2,3%)	2025	[20]
Xizmatlarning bandlikdagi ulushi	≈50%	2022	[13]
Internet foydalanuvchilari	32,7 mln	2026	[25]
Muomaladagi bank kartalari	75,7 mln	01.08.2026	[23]
Terminallar orqali tushumlar	387,4 trln so‘m (+44,3% yillik)	yanvar–iyul 2026	[23]
«IT Park» rezidentlarining xizmatlar eksporti	392,5 mln AQSH dollari (+90,3 mln)	yanvar–iyun 2026	[24]
Elektron tijorat bozori	≈1,2 mlrd AQSH dollari (2027-yil prognozi: 1,8–2,2 mlrd)	2024	[25]
Turizm xizmatlari eksporti; xorijiy tashrif buyuruvchilar	4,4 mlrd AQSH dollari (+44%); 10,7 mln (+14%)	yanvar–noyabr 2025	[31, 32]
BMT elektron hukumat indeksi (EGDI)	0,7999; 63-o‘rin (193 mamlakat orasida)	2024	[17]

Foydalanuvchilar soni bo‘yicha: 2026-yil mayida e’lon qilingan rasmiy ma’lumotda internet foydalanuvchilari soni 32,7 mln deb ko‘rsatilgan [25]; UNDP hisobotida bu ko‘rsatkich 2024-yil yanvar holatiga 29,52 mln edi [16]. Aloqa qamrovi bo‘yicha manbalar bir-biridan sezilarli farq qiladi: UNDP 4G qamrovini aholining 66 foizi va asosan yirik shaharlar deb baholaydi [16], Jahon banki hisobotida 2023-yil uchun 4G/LTE qamrovi 92 foiz deb berilgan [13], 2025-yil may oyidagi M360 Eurasia forumida keltirilgan GSMA ma’lumotiga ko‘ra esa mobil keng polosali aloqa aholi punktlarining 99 foizini qamrab olgan [27]. Bu farqlar asosan o‘lchov bazasi (aholi yoki aholi punktlari) va davr farqidan kelib chiqadi; shu bilan birga UNDP ulanish sifati va tezligi jahon o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan past ekanini ta’kidlaydi [16]. Demak, siyosat e’tiborini «qamrov»dan «xizmat sifati»ga o‘tkazish zarur.

Raqamli to‘lovlar bo‘yicha dinamika kuchli. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-avgust holatiga muomaladagi bank kartalari soni 75,7 mln ga yetgan (yil boshiga nisbatan 7,4 mln, taxminan 11 foizga oshgan), to‘lov terminallari soni 453,5 mingtaga, bankomat va info-kiosklar soni 47 mingtaga yetgan; terminallar orqali tushumlar 2026-yilning yanvar–iyul oylarida 387,4 trln so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 44,3 foizga oshgan va 2025-yilning butun yili bo‘yicha (460,3 trln so‘m) ko‘rsatkichning ≈84 foizini tashkil etgan (muallif hisobi) [23]. Shu bilan birga, kartalar soni aholi sonidan (37 mlndan ortiq [14]) ancha ko‘p bo‘lgani uchun u to‘lovlar bilan qamrov darajasini bevosita ifodalamaydi: Jahon bankining 2024-yildagi tahlilida aholining atigi 40 foizi raqamli to‘lovlarni amalga oshirishi yoki qabul qilishi qayd etilgan edi [14]. Shuning uchun moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirishda «karta chiqarish»dan «faol foydalanish va ishonch»ga o‘tish dolzarb vazifadir.

UNDP ma’lumotiga ko‘ra, «IT Park» rezidentlarining eksporti 2022-yildagi 140 mln dollardan 2023-yilda 344 mln dollarga, ya’ni 2,5 baravarga (+145,7 foiz, muallif hisobi) oshgan [16]. 2026-yilning yanvar–iyun oylarida «IT Park» rezidentlari 392,5 mln dollarlik xizmat eksport qilgan, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 90,3 mln dollarga (taxminan 29,9 foizga, muallif hisobi) ko‘pdir [24]. Raqamli texnologiyalar vaziri 2025-yilda mamlakat IT xizmatlari eksporti tarixda ilk bor 1 mlrd dollardan oshishini bashorat qilgan va 2030-yilgacha uni kamida 5 mlrd dollarga yetkazishni maqsad qilgan [26, 27]. Ikkala raqam turli agregatlarga tegishli ekanini ta’kidlash lozim: «IT Park» rezidentlari eksporti butun mamlakat IT xizmatlari eksportining bir qismidir.

Agar 2025-yildagi bazaviy qiymat 1 mlrd dollar deb olinsa, 5 mlrd dollarga 2030-yilgacha yetish uchun yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati ≈38 foiz bo‘lishi kerak (muallif hisob-kitobi). Taqqoslash uchun: UNCTAD ma’lumotiga ko‘ra, eng kam rivojlangan mamlakatlarning raqamli yetkaziladigan xizmatlar eksporti 2015–2023-yillarda jami 43 foizga (yiliga ≈4,6 foiz) oshgan [18]. O‘zbekiston bu guruhga kirmasligini hisobga olsak ham, taqqoslash

4 Eslatma: YaQQ — yalpi qo‘shilgan qiymat. Dastlabki ma’lumotlar keyinchalik aniqlashtirilishi mumkin.

maqsad qanchalik shiddatli o‘sishni talab qilishini ko‘rsatadi: bu sur’atni faqat ichki talab yoki mavjud imtiyozlar bilan emas, balki bozorga kirish, kadrlar, to‘lovlar va ma’lumotlar rejimini bir vaqtda yaxshilash orqali ta’minlash mumkin.


Elektron tijorat. Rasmiy ma’lumotga ko‘ra, O‘zbekistonda elektron tijorat bozori 2024-yilda ≈1,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan va 2027-yilga kelib 1,8–2,2 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinadi; bu yillik o‘rtacha ≈14,5–22,4 foiz o‘sish demakdir (muallif hisobi) [25]. O‘zbek sotuvchilarining «Wildberries»dagi savdosi so‘nggi ikki yilda 1 mlrd dollardan oshgani ham qayd etilgan [25]. Chakana savdo aylanmasi 2025-yilda 482,4 trln so‘mga yetib, 11,2 foizga oshdi; shundan tashkillashtirilmagan savdoning ulushi 9,1 foizni tashkil etdi [19]. Homiylik materialida elektron tijorat aylanmasi 2025-yilda 22,6–22,7 trln so‘m deb keltirilgan [33]; bu qiymatni rasmiy chakana savdo aylanmasi bilan taqqoslasak, onlayn savdoning ulushi ≈4,7 foizni tashkil etadi (muallif hisobi). Shu asosda onlayn kanalning ulushi hali past va o‘sish zaxirasi katta, biroq 22,6 trln so‘m raqami mustaqil rasmiy manba bilan tasdiqlanishi lozim.

Turizm. Turizm qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida O‘zbekistonga 10,7 mln xorijiy tashrif buyuruvchi kelgan (+14 foiz), turizm xizmatlari eksporti esa 4,4 mlrd dollarga yetgan (+44 foiz) [31, 32]. Eksport tashrif buyuruvchilar soniga qaraganda tezroq o‘sgani sababli, bir tashrif buyuruvchiga to‘g‘ri keladigan eksport hajmi ≈26 foizga ortgan (muallif hisobi); bu — metodologik farqlarga bog‘liq bo‘lsa-da — xizmat sifati, mehmonxona va transport infratuzilmasi hamda to‘lov usullarining kengayishi bilan izohlanishi mumkin. Qonunchilikdagi 2026-yilgi o‘zgarishlar (ma’lumotlarni xorijda saqlash qoidalarining yumshatilishi) global to‘lov tizimlari orqali kontaktsiz to‘lovlarni xorijiy turistlar uchun qulaylashtirishga xizmat qiladi, deb baholanadi [29].

BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) bo‘yicha O‘zbekiston 2020-yildagi 87-o‘rindan 2022-yilda 69-o‘ringa va 2024-yilda 63-o‘ringa ko‘tarildi (indeks qiymati 0,6665 dan 0,7999 gacha) [17]. Indeks tarkibi (3-jadval, 3-rasm) shuni ko‘rsatadiki, o‘sish deyarli to‘liq telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksining (TII) 2018-yildagi 0,331 dan 2024-yilda 0,877 gacha oshishi hisobiga ta’minlangan (EGDI uch tarkibiy indeksning o‘rtacha qiymati bo‘lgani uchun, TII ning 2018–2024-yillardagi hissasi EGDI umumiy o‘sishining ≈102 foizini tashkil etadi, muallif hisob-kitobi); onlayn xizmatlar indeksi (OSI) esa shu davrda 0,792 dan 0,765 gacha biroz pasaygan, inson kapitali indeksi (HCI) 2022-yildagi 0,778 dan 2024-yilda 0,758 gacha kamaygan (3-jadval) [17].

3-jadval. O‘zbekistonning BMT elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) va uning tarkibiy qismlari[5]

Yil	EGDI	O‘rin (193 dan)	OSI (onlayn xizmatlar)	TII (infratuzilma)	HCI (inson kapitali)
2018	0,6207	81	0,7917	0,3307	0,7396
2020	0,6665	87	0,7824	0,4736	0,7434
2022	0,7265	69	0,7440	0,6575	0,7778
2024	0,7999	63	0,7648	0,8769	0,7580
2018→2024	+0,1792	+18 pog‘ona	−0,0269	+0,5462	+0,0184



3-rasm. BMT elektron hukumat indeksi tarkibiy qismlari dinamikasi, 2018–2024-yillar[6]

5 Manba: [17]; oxirgi qator — muallif hisob-kitobi. EGDI uch tarkibiy indeksning o‘rtacha qiymatidir.
6 Manba: [17] ma’lumotlari asosida muallif tuzgan; aniq qiymatlar 3-jadvalda keltirilgan.

Bu «infratuzilma oldinda, xizmat sifati va kadrlar ortda» holati tadqiqot gipotezasini qisman tasdiqlaydi: texnik ulanish tez rivojlansa-da, davlat xizmatlarining foydalanuvchiga yo‘nalganligi va aholining raqamli ko‘nikmalari xuddi shunday sur’atda yaxshilanmagan. UNDP ma’lumotlari ham shuni tasdiqlaydi: onlayn xizmatlar reyestrida 883 ta xizmat mavjud (reja — 715), «OneID» yagona identifikatsiya tizimi 10,07 mln foydalanuvchiga ega, biroq elektron davlat xizmatlari foydalanuvchilarining atigi 32 foizini ayollar tashkil etadi [16]. Vazir davlat xizmatlarining 80 foizdan ortig‘i onlayn ko‘rsatilishini, 2030-yilgacha esa BMT reytingida dastlabki 30 talikka kirish maqsadi saqlanishini ta’kidlagan [26, 27]. Yangilangan strategiya ilovasida tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish darajasini 100 foizga, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirishni 85 foizga yetkazish maqsadlari ham belgilangan [3].

Strategik hujjatlar. «Raqamli O‘zbekiston–2030» strategiyasi (2020) raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar bozori hamda ta’lim va IT-kadrlar tayyorlashni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan [1]. 2023-yilda qabul qilingan «O‘zbekiston–2030» strategiyasi [2] 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmon bilan 2026–2030-yillar uchun yangilangan; Farmonga ko‘ra, strategiya ko‘rsatkichlari ijrosi raqamli monitoring platformasida yuritiladi va har bir ko‘rsatkich «yashil — sariq — qizil» holat bo‘yicha baholanadi [3]. Bu xizmatlar sohasini raqamlashtirish dasturlari uchun ham shaffof javobgarlik mexanizmi yaratadi.

Ma’lumotlar rejimi. 2026-yil 26-martdagi 1125-son Qonun bilan «Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritildi: endi faqat biometrik, genetik va mahalliy telekommunikatsiya xizmatlari foydalanuvchilarining ma’lumotlarigina mamlakat ichida saqlanishi shart; boshqa shaxsiy ma’lumotlar adekvat himoyaga ega deb tan olingan mamlakatlarga yoki tasdiqlangan standart shartnoma bandlari, majburiy korporativ qoidalar yoxud xalqaro standartlarga muvofiqlik asosida xorijda saqlanishi va qayta ishlanishi mumkin; adekvat mamlakatlar ro‘yxatini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlashi kutilmoqda [4, 29, 30]. Qonunchilar bu o‘zgarishni fintex va elektron tijoratni qo‘llab-quvvatlash, frilanserlar uchun qonuniy to‘lov kanallarini ochish, xorijiy turistlar uchun kontaktsiz to‘lovlarni yaxshilash bilan bog‘laydi [29]. Jahon banki tahlilida ma’lumotlarni mahalliylashtirish talablari transchegaraviy AKT xizmatlarini sezilarli cheklovchi omil sifatida ko‘rsatilgan edi [14]; shu ma’noda, 2026-yilgi islohot «mahalliylashtirishdan boshqariladigan ochiqlikka» o‘tishni anglatadi.

Sun’iy intellekt. 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son Qonun sun’iy intellekt ta’rifini «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunga kiritdi, huquqiy ahamiyatga ega qarorlar faqat SI xulosalariga tayanmasligi lozimligini belgiladi va shaxsiy ma’lumotlarni SI yordamida qonunga xilof qayta ishlash uchun javobgarlik joriy etdi; 2026-yil 17-iyundan kuchga kirgan SI yechimlari etikasi qoidalari (3787-son buyruq) shaffoflik, hisobdorlik, inson nazorati va noxolislikka yo‘l qo‘ymaslik tamoyillarini belgilaydi [4]. Bu qoidalar xavf darajalari bo‘yicha toifalashni nazarda tutmaydi [5], ya’ni tartibga solish hozircha «yengil» tavsifga ega — bu innovatsiyalar uchun qulay, lekin ijro mexanizmlari rivojlanishini talab qiladi. SI texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son qaror bilan 2030-yilgacha tasdiqlangan [5].

JSTga a’zolik. 2026-yil 3-avgust holatiga 34 ta ikki tomonlama bozorga kirish kelishuvidan 31 tasi JST Kotibiyatiga taqdim etilgan, 190 ta huquqiy-me’yoriy hujjat JST qoidalariga moslashtirilgan; 2026-yil mart oyidagi maqsad bajarilmagan, a’zolikni 2026-yil ichida yakunlash maqsadi saqlanmoqda; Ishchi guruhning navbatdagi yig‘ilishi kech kuzga rejalashtirilgan [28]. Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, xizmatlar savdosidagi cheklovlarni eng yaxshi mamlakatlar bilan farqning yarmiga qisqartirish YaIMni 9 foizgacha, real ish haqini 8 foizgacha oshirishi mumkin; xizmatlar savdosini to‘liq liberallashtirish esa YaIMni 17 foizgacha oshirishi mumkin [13, 14]. Bu — bashorat emas, balki umumiy muvozanat modelidagi islohot simulyatsiyasi ekanini yodda tutish zarur.

4-jadvalda tahlil natijalari «4C» modeli bo‘yicha tizimlashtirilgan.

4-jadval. Xizmatlar sohasi rivojlanishidagi to‘siqlar: «4C» modeli bo‘yicha[7]

Omil	Dalillar	Manba
Ulanuvchanlik (connectivity)	Logistika samaradorligi indeksida 88-o‘rin (139 mamlakat, 2023); aloqa qamrovi ko‘rsatkichlari manbalarda 66% dan 99% gacha farqlanadi, ulanish sifati va tezligi jahon o‘rtachasidan past; Jahon bankining 2024-yildagi baholariga ko‘ra, aholining atigi 40 foizi raqamli to‘lovlarni amalga oshirgan yoki qabul qilgan	[13, 14, 16, 27]
Raqobat muhiti (contestability)	31 ta xizmat kichik tarmog‘idan 11 tasida transchegaraviy yetkazib berish to‘liq yopiq; bozor raqobatbardoshligi bo‘yicha jahon reytingining quyi uchdan biri; telekommunikatsiya va transportda davlat korxonalari ustun; «Startap to‘g‘risida»gi alohida qonun yo‘q (2026-yilda ma’lumotlarni mahalliylashtirish rejimi yumshatildi)	[13, 14, 16, 4]

7 Manba: ko‘rsatilgan manbalar asosida muallif tizimlashtirgan.

Omil	Dalillar	Manba
Salohiyat (capabilities)	Oliy ta'limga qamrov 31,5% (2022; mintaqa o'rtachasi ≈80%); asosiy AKT ko'nikmalari aholining 10–15 foizida; startaplarning 70 foizi moliyalashtirishni asosiy muammo deb biladi; venchur kapital 2023-yilda 6,3 mln dollar; ≈1 200 startapdan 50–100 tasi barqaror; asoschilarning atigi 2–5 foizi ayollar	[13, 14, 16]
Ishonch (confidence)	Elektron davlat xizmatlari foydalanuvchilarining 32 foizi ayollar; kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligini kuchaytirish zarurati (UNDP); SI tartibga solish xavf toifalariga bo'lmaydigan «yengil» modelga asoslanadi va ijro mexanizmlari shakllanmoqda	[16, 5]

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'siqlar bir-biri bilan bog'liq: past malaka talabni cheklaydi, bozor yopiqligi raqobat va o'rganish bosimini susaytiradi, moliyalashtirish tanqisligi startaplar masshtablanishini cheklaydi, ishonch yetishmasligi esa to'lovlar va ma'lumotlar almashinuvidagi imkoniyatlardan foydalanishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun alohida chora emas, balki o'zaro uyg'un «paket» zarur (5-jadval).

5-jadval. O'zbekistonda xizmatlar sohasining raqamli transformatsiyasi: SWOT tahlil[8]

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
• Xizmatlar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri (2025-yilda +8,5%) [19] • AKT xizmatlari ulushining tez o'sishi (2021–2025-yillarda 1,6% dan 2,7% gacha) [16, 20] • «IT Park» modeli — Jahon banki muvofiqlashtirilgan siyosat namunasi sifatida ko'rsatgan [14] • Jadal rivojlanayotgan to'lovlar infratuzilmasi (75,7 mln karta, 453,5 ming terminal) [23] • EGDI bo'yicha 63-o'rin va yuqori telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi [17] • Keng ichki bozor (37 mln dan ortiq aholi) [14]	• Bilimtalab xizmatlar bandlikning atigi 4–5 foizi [13, 14] • Past raqamli ko'nikmalar va oliy ta'limga qamrov [13] • Venchur kapital va startaplarni moliyalashtirish tanqisligi [16] • Onlayn xizmatlar va inson kapitali indekslarining pasayishi [17] • Xizmatlar savdosidagi cheklovlar [13] • Ko'rsatkichlar metodologiyasidagi tafovutlar (IT eksporti, aloqa qamrovi) [16, 24, 27]
Imkoniyatlar (O)	**Tahdidlar (T)**
• JSTga a'zolik va xizmatlar bozorini bosqichma-bosqich ochish [28] • 2026-yilgi ma'lumotlar rejimi liberallashuvi [4, 29, 30] • Global to'lov tizimlari va frilans platformalari bilan integratsiya [29] • Rivojlanayotgan mamlakatlarning raqamli xizmatlar eksporti 1 trillion dollardan oshgani [18] • Sun'iy intellekt bo'yicha dastlabki huquqiy asos [4, 5] • Elektron tijorat va turizm xizmatlarining jadal o'sishi [25, 31]	• Yangi ma'lumotlar rejimining ijro qilinmasligi va noaniqliklar [4] • Xorijiy platformalarga bog'liqlik (to'lov, marketpleys) • Malakali kadrlarning tashqi mehnat bozoriga chiqib ketish xavfi (muallif baholashi) • Kiberxavfsizlik xavflari [16] • Raqamli tengsizlik (gender va hududiy): elektron xizmatlarda ayollar 32% [16] • 5 mlrd dollarlik IT eksporti maqsadi o'ta yuqori o'sish sur'atini talab qilishi (≈38%)

Quyida AKT xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi va IT xizmatlari eksporti bo'yicha oddiy ekstrapolyatsiyaga asoslangan indikativ stsenariylar keltirilgan (6-jadval). Ular bashorat emas, balki «agar nisbiy o'sish sur'ati shunday bo'lsa, 2030-yilda qanday daraja kuzatiladi?» degan savolga javob beruvchi hisob-kitoblardir. AKT xizmatlari ulushi uchun 2025-yildagi 2,7 foiz, IT eksporti uchun esa vazir e'lon qilgan 1 mlrd dollar bazaviy qiymat sifatida olindi (6-jadval).

6-jadval. 2030-yilgacha indikativ stsenariylar

Ko'rsatkich	Past	Bazaviy	Yuqori
AKT xizmatlari ulushining yillik nisbiy o'sishi	5%	10%	≈14% (2021–2025-yillardagi sur'at)
AKT xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi, 2030 (2025: 2,7%)	3,4%	4,3%	5,2%
IT xizmatlari eksportining yillik o'sishi	15%	25%	≈38%
IT xizmatlari eksporti, 2030 (2025: ≈1 mlrd dollar)	2,0 mlrd dollar	3,1 mlrd dollar	5,0 mlrd dollar

8 Manba: muallif tahlili.

Eslatma: stsenariylar 2025-yilgi bazaviy qiymatlarning geometrik ekstrapolyatsiyasi bo‘lib, bashorat hisoblanmaydi; bazaviy qiymatlar — [20, 26].

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, AKT xizmatlari ulushining so‘nggi to‘rt yildagi o‘sish sur’ati (≈14 foiz) saqlansa, uning ulushi 2030-yilga kelib ≈5,2 foizga yetishi mumkin; IT eksporti bo‘yicha 5 mlrd dollarlik maqsad esa ≈38 foizlik yillik o‘sishni talab qiladi — bu «zaif» o‘sish stsenariylaridan 2,5 baravar yuqori. Demak, maqsadga erishish uchun jiddiy institutsional va kadrlar islohotlari zarur.

Tahlil natijalari rivojlantirish yo‘llarini sakkiz yo‘nalishda guruhlashga imkon beradi. Ularning har biri «4C» modelidagi muayyan to‘siqqa qaratilgan.

Xizmatlar savdosidagi cheklovlar eng katta potensial yutuq manbai hisoblanadi [13, 14]. Birinchi navbatda, JSTga a’zolikni yakunlashda xizmatlar bo‘yicha majburiyatlar jadvalini kompyuter va telekommunikatsiya, moliya, kasbiy xizmatlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash tarmoqlari bo‘yicha bosqichma-bosqich liberallashtirish yo‘l xaritasi bilan bog‘lash maqsadga muvofiq: bu xorijiy kapital va texnologiyalarni jalb qiladi, raqobat bosimini oshiradi va «yopiq» kichik tarmoqlar (Jahon banki 31 ta xizmat kichik tarmog‘idan 11 tasida transchegaraviy yetkazib berish to‘liq yopiq ekanini qayd etgan [13]) sonini kamaytiradi. Ikkinchidan, davlat korxonalari ustun bo‘lgan telekommunikatsiya va transport tarmoqlarida raqobat betarafligi (competitive neutrality) qoidalarini joriy etish zarur [14]. Uchinchidan, platformalarni tartibga solishda ikki tomonlama bozorlar xususiyatini [10] hisobga olib, oldindan qat’iy taqiqlar o‘rniga ehtiyotkor, dalillarga asoslangan (ex-post) yondashuv va tartibga solish «qum maydonchalari» (regulatory sandbox) samaraliroq bo‘ladi.

2026-yilgi islohot yo‘nalishi to‘g‘ri, biroq uning samarasi ijroga bog‘liq. Zarur chora-tadbirlar: adekvat mamlakatlar ro‘yxatini tasdiqlash, standart shartnoma bandlari va majburiy korporativ qoidalar bo‘yicha andozalarni e’lon qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha vakolatli organning texnik va kadrlar salohiyatini mustahkamlash [4, 29]. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik, elektron tijoratda iste’molchi huquqlarini himoya qilish va SI etikasi qoidalari ijrosi uchun hisobdorlik mexanizmi (shikoyat, auditlar, ochiq hisobotlar) zarur. UNDP ham kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish qonunchiligini kuchaytirish hamda ma’lumotlar suverenitetiga muvozanatli yondashuvni qabul qilishni tavsiya etadi [16]. Ishonch omili elektron hukumatda ayollar ulushining pastligi (32 foiz) kabi tengsizliklarni kamaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi: foydalanuvchi uchun xavfsiz, tushunarli va ishonchli interfeys ishtirok darajasini oshiradi.

Terminallar orqali to‘lovlar va kartalar soni jadal o‘sayotgan bir paytda [23] asosiy vazifa — to‘lovlar infratuzilmasining eksport va xizmatlar savdosi uchun ochiqligini ta’minlashdir. Frilanserlar va IT-kompaniyalar uchun xalqaro to‘lov tizimlari orqali qonuniy va qulay valyuta tushumi kanallari, bank ilovalari uchun ochiq API (open banking), QR-to‘lovlar va kontaktsiz to‘lovlar xorijiy turistlar va xorijiy marketpleyslar uchun muhim [29]. Moliyaviy savodxonlik va qishloq joylarda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish ham zarur, chunki Jahon banki ma’lumotlarida aholining katta qismi hali raqamli to‘lovlardan foydalanmaydi [14].

Xizmatlar sohasidagi ish o‘rinlarining qariyb 60 foizi past malakali yo‘nalishlarda bo‘lgani [13] va aholining atigi 10–15 foizi asosiy AKT ko‘nikmalariga ega ekani (Jahon bankining turli nashrlarida 10 foizdan kam va 15 foiz deb keltirilgan [13, 14]) raqamli transformatsiyaning asosiy cheklovi kadrlar ekanini ko‘rsatadi. Oliy ta’limga qamrov 2022-yilda 31,5 foizni tashkil etgan, bu Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi o‘rtacha (≈80 foiz) ko‘rsatkichidan ikki baravardan ko‘proq past [13]. Yo‘nalish: (i) umummilliy raqamli savodxonlik dasturi (ayollar va qishloq aholisiga alohida e’tibor); (ii) chakana savdo, mehmonxona va transport xodimlarini qayta tayyorlash (reskilling) dasturlari; (iii) ingliz tili va kasbiy sertifikatlashni kengaytirish; (iv) universitet–sanoat hamkorligi va IT-kadrlarni amaliy tayyorlash; (v) xizmatlar sohasida yangi kasblarni (ma’lumotlar tahlilchisi, kiberxavfsizlik mutaxassisi, raqamli marketolog, SI operatori) shakllantirish.

IT xizmatlari eksporti o‘sish sur’atlari yuqori [16, 24], biroq 5 mlrd dollarlik maqsad [26, 27] yetarlicha keng eksport bazasini talab qiladi. Zarur chora-tadbirlar: (i) biznes jarayonlarini tashqi pudratga berish (BPO), umumiy xizmat markazlari, onlayn ta’lim (EdTech), telemeditsina, o‘yin sanoati va fintex kabi yo‘nalishlarni eksport diversifikatsiyasi uchun ustuvor deb belgilash; (ii) xizmatlar eksporti uchun sug‘urta va moliyalashtirish mexanizmlarini (eksport kreditlari, kafolatlar) kengaytirish; (iii) hududiy IT-parklar va hududlarda xizmatlar hajmini oshirish dasturlarini markaz bilan bog‘lash; (iv) xorijiy bozorlarda (MDH, Yaqin Sharq, Yevropa) O‘zbekiston xizmat eksportchilari brendini shakllantirish; (v) startaplar uchun «Startap to‘g‘risida»gi qonunni, ularni sertifikatlash, soliq imtiyozlari va muqobil moliyalashtirish (kraudfanding, konvertatsiya qilinadigan qarz) huquqiy asoslarini yaratish, chunki UNDP ma’lumotiga ko‘ra, startaplarning 70 foizi moliyalashtirishni asosiy muammo deb ko‘rsatgan, 2023-yilda venchur kapital atigi 6,3 mln dollar bo‘lgan, 1 200 ga yaqin startapdan faqat 50–100 tasi barqaror ishlagan [16].

Turizm. «Aqlli yo‘nalish» (smart destination) platformasi: yagona onlayn bron qilish, elektron viza, transport va mehmonxona xizmatlari integratsiyasi, xorijiy bank kartalari va global to‘lov tizimlari bilan kontaktsiz to‘lovlar [29, 31, 32].

Logistika va transport. Jahon bankining 2023-yilgi Logistika samaradorligi indeksida O‘zbekiston 139 mamlakat orasida 88-o‘rinni egallagan [13, 14]; elektron transport-yuk hujjatlari, raqamli yuk tashish platformalari va kuzatuv tizimlari logistika xizmatlarining sifati va narxiga bevosita ta’sir qiladi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar. Yangilangan strategiyada tibbiyot muassasalarini raqamlashtirishni 100 foizga, yagona raqamli sog‘liqni saqlash platformasini to‘liq joriy etishni va ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirishni 85 foizga yetkazish maqsadlari belgilangan [3]; telemeditsina va elektron tibbiy yozuvlar bu maqsadlarning amaliy vositasi bo‘lishi mumkin.

Ta’lim. Onlayn ta’lim, masofaviy kurslar va raqamli ta’lim eksporti ham ichki kadrlar tanqisligini kamaytirish, ham xizmatlar eksportini kengaytirish imkonini beradi.

Agroxizmatlar. Qishloq xo‘jaligi 2025-yilda yalpi qo‘shilgan qiymatning 17,3 foizini tashkil etgan [20]. Bu sohaga xizmat ko‘rsatuvchi raqamli yechimlar — onlayn maslahat (raqamli ekstensiya), mahsulot sotish uchun elektron platformalar, agrologistika, yer va hosildorlik monitoringi, kredit skoringi — qishloq hududlarida yuqori unumdorlikdagi xizmat ish o‘rinlarini yaratish va raqamli inklyuziyani oshirish imkonini beradi. Bu yo‘nalish bo‘yicha aniq miqdoriy ko‘rsatkichlar ushbu tadqiqotda tekshirilmagan va keyingi tadqiqot mavzusidir.

Chakana savdo va elektron tijorat. Chakana savdoning 9,1 foizi hali tashkillashtirilmagan [19], onlayn savdo ulushi esa past (≈4,7 foiz) — bu raqamli to‘lov, onlayn kassa va marketpleyslarga integratsiya orqali rasmiylashtirish va raqamli ko‘rinuvchanlikni oshirish imkonini beradi.

Ulanuvchanlik bo‘yicha asosiy maqsad aloqa qamrovini emas, balki xizmat sifatini (tezlik, kechikish, barqarorlik) oshirishdir [16]. Taklif: (i) mustaqil xizmat sifati monitoringi va hududiy xaritalarni ochiq e’lon qilish; (ii) qishloq joylarda keng polosali aloqani kengaytirish va infratuzilmadan birgalikda foydalanish; (iii) elektron tijorat uchun «oxirgi mil» yetkazib berish va ombor infratuzilmasi; (iv) xizmatlar eksporti uchun xalqaro kanallar sig‘imini oshirish — 2025-yil may oyidagi forumda xalqaro kanal sig‘imi 4 200 Gbit/s deb keltirilgan [27].

Siyosatni dalillarga asoslash uchun o‘lchash tizimi zarur. Birinchidan, raqamli yetkaziladigan xizmatlar savdosini xalqaro «Qo‘llanma»ga muvofiq o‘lchash va e’lon qilish [12]; ikkinchidan, IT xizmatlari eksporti uchun yagona metodologiya (mamlakat bo‘yicha va «IT Park» rezidentlari bo‘yicha) va raqamli iqtisodiyotning sun’iy hisobini (satellite account) yuritish; uchinchidan, xizmatlar bo‘yicha unumdorlik va bandlikni tarmoqlar kesimida ochiq ma’lumot sifatida e’lon qilish; to‘rtinchidan, «O‘zbekiston–2030» strategiyasining raqamli monitoring platformasidan foydalanib, xizmatlarni raqamlashtirish ko‘rsatkichlarini «yashil–sariq–qizil» tizimida kuzatish [3].

Rivojlantirish yo‘llari xaritasi 7-jadvalda jamlangan (7-jadval).

7-jadval. Rivojlantirish yo‘llari xaritasi[9]

Yo‘nalish	Asosiy chora	Mas’ul tashkilotlar	Muddat	Monitoring ko‘rsatkichi
1. Bozor ochiqligi	JST majburiyatlari va xizmatlarni liberallashtirish yo‘l xaritasi; xizmatlar savdosi cheklovlari auditi; raqobat betarafligi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi; JSTga a’zolik bo‘yicha muzokaralar guruhi; Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	2026–2028	To‘liq yopiq xizmat kichik tarmoqlari soni (hozir 11/31)
2. Ma’lumotlar va ishonch	Adekvat mamlakatlar ro‘yxati va andozalar; ijro mexanizmlari; kiberxavfsizlik va SI etikasi ijrosi	Raqamli texnologiyalar vazirligi; Vazirlar Mahkamasi; vakolatli organ	2026–2027	Tasdiqlangan hujjatlar soni; shikoyatlarni ko‘rib chiqish muddati
3. To‘lovlar	Xalqaro to‘lov tizimlari, ochiq API, frilanserlar uchun kanallar	Markaziy bank; Raqamli texnologiyalar vazirligi	2026–2028	Transchegaraviy xizmatlar tushumi; faol foydalanuvchilar ulushi
4. Kadrlar	Raqamli savodxonlik dasturi; qayta tayyorlash; ingliz tili; universitet–sanoat hamkorligi	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; Raqamli texnologiyalar vazirligi	2026–2030	Asosiy AKT ko‘nikmalariga ega aholi ulushi (hozir 10–15%); oliy ta’limga qamrov (hozir 31,5%)
5. Eksport va startaplar	Startap qonuni; «qum maydonchalari»; muqobil moliyalashtirish; BPO, EdTech, telemeditsina; eksport sug‘urtasi	IT Park; Iqtisodiyot va moliya vazirligi; Markaziy bank	2026–2030	IT xizmatlari eksporti (maqsad: 5 mlrd dollar, 2030); barqaror startaplar soni
6. Tarmoqlar raqamlashuvi	Turizm platformasi; elektron transport hujjatlari; telemeditsina; EdTech; agroxizmatlar	Turizm qo‘mitasi; Sog‘liqni saqlash vazirligi; Transport vazirligi; Qishloq xo‘jaligi vazirligi	2026–2030	Tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish (maqsad: 100%); Logistika samaradorligi indeksidagi o‘rin (hozir 88)

9 Eslatma: muddatlar va mas’ul tashkilotlar muallifning tavsiyaviy taklifi bo‘lib, rasmiy rejalarni almashtirmaydi.

Yo‘nalish	Asosiy chora	Mas’ul tashkilotlar	Muddat	Monitoring ko‘rsatkichi
7. Infratuzilma	Xizmat sifati monitoringi; qishloq joylarda keng polosali aloqa; «oxirgi mil» infratuzilmasi	Raqamli texnologiyalar vazirligi; mobil operatorlar; hokimliklar	2026–2029	Median yuklab olish tezligi; qishloqlarda keng polosali ulanish ulushi
8. Statistika va monitoring	Raqamli savdoni o‘lchash; IT eksporti yagona metodologiyasi; sun’iy hisob; strategiya raqamli platformasi	Milliy statistika qo‘mitasi; Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi	2026–2027	Raqamli yetkaziladigan xizmatlar savdosi ma’lumotining e’lon qilinishi; «yashil» ko‘rsatkichlar ulushi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Raqamli texnologiyalar xizmatlar sohasiga to‘rt kanal — savdo qilinuvchanlik, masshtablanuvchanlik va platformalashuv, unumdorlik va sifat, qiymatni birgalikda yaratish — orqali ta’sir qiladi. Ularning amalga oshishi institutsional muhitga bog‘liq bo‘lgani uchun Jahon bankining «3C» modeli ishonch omili bilan kengaytirilib, «4C» modeli sifatida qo‘llanildi.

2. Xizmatlar O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining asosiy manbai bo‘lib qolmoqda: 2025-yilda xizmatlar 8,5 foizga o‘sdi, YaIM o‘sishining ≈51 foizini ta’minladi, yalpi qo‘shilgan qiymatdagi ulushi 48,6 foizni (YaIMdagi ulushi ≈46,5 foiz), AKT xizmatlarining ulushi esa 2,7 foizni tashkil etdi [19, 20, 21]. AKT xizmatlari ulushi 2021–2025-yillarda yiliga o‘rtacha ≈14 foizga oshdi.

3. O‘sish sifat jihatdan bir tekis emas: bandlikning yarmini ta’minlovchi xizmatlar sohasida ish o‘rinlarining qariyb 60 foizi past malakali yo‘nalishlarda, yuqori unumdorlikdagi bilimtalab xizmatlar esa bandlikning atigi 4–5 foizini tashkil etadi [13, 14].

4. Elektron hukumat indeksi (EGDI) bo‘yicha 2020–2024-yillarda O‘zbekiston 87-o‘rindan 63-o‘ringa ko‘tarildi, biroq bu o‘sish deyarli to‘liq telekommunikatsiya infratuzilmasi hisobiga ta’minlandi; onlayn xizmatlar indeksi 2018-yilga nisbatan pasaydi, inson kapitali indeksi esa 2022-yildan beri kamaydi [17]. Bu tadqiqot gipotezasini qisman tasdiqlaydi: texnik infratuzilmadan ko‘ra institutsional omillar va kadrlar ko‘proq cheklovchi bo‘lib bormoqda.

5. Raqamli to‘lovlar, IT xizmatlari eksporti, elektron tijorat va turizm bo‘yicha o‘sish sur’atlari yuqori: terminallar orqali tushumlar 2026-yilning yetti oyida 2025-yilning butun yilidagi hajmning ≈84 foiziga yetdi [23]; «IT Park» rezidentlari eksporti 2026-yil birinchi yarmida ≈29,9 foizga oshdi [24]; turizm xizmatlari eksporti 2025-yil yanvar–noyabrda 44 foizga oshdi [31].

6. 2026-yilgi institutsional o‘zgarishlar — ma’lumotlar rejimining liberallashuvi, SI qoidalari, strategiya monitoringi va JSTga a’zolik jarayonining yakunlanishi — xizmatlar sohasi uchun qulay «siyosiy oyna» yaratdi; biroq ularning samarasi adekvat mamlakatlar ro‘yxati, ijro mexanizmlari va xizmatlar bo‘yicha majburiyatlar jadvali kabi amaliy qarorlarga bog‘liq [4, 28, 29].

7. Indikativ stsenariylar shuni ko‘rsatadiki, IT eksporti bo‘yicha 2030-yilgacha 5 mlrd dollarlik maqsadga erishish ≈38 foizlik yillik o‘sishni talab qiladi; bu faqat bozor ochiqligi, kadrlar, to‘lovlar va ma’lumotlar rejimini bir vaqtda yaxshilash sharoitida real ko‘rinadi.

8. Tadqiqot cheklovlari (dastlabki ma’lumotlar, turli agregatlar, ikkilamchi manbalar) keyingi tadqiqotlarda ekonometrik baholash (xizmatlar unumdorligi va raqamli indikatorlar o‘rtasidagi bog‘liqlik), firmalar darajasidagi so‘rovlar va yangilangan strategiyaning raqamli maqsadlarini alohida tahlil qilishni talab qiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. JSTga a’zolikni xizmatlar islohoti bilan bog‘lash. A’zolikni yakunlashda xizmatlar bo‘yicha majburiyatlarni kompyuter, telekommunikatsiya, moliya, kasbiy xizmatlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash bo‘yicha bosqichma-bosqich liberallashtirish yo‘l xaritasi bilan bog‘lash; xizmatlar savdosidagi cheklovlar bo‘yicha yillik audit o‘tkazish va natijalarini e’lon qilish.

2. Ma’lumotlarni transchegaraviy uzatish tartibini amaliy ishga tushirish. 1125-son Qonunni amalga oshirish bo‘yicha adekvat mamlakatlar ro‘yxatini, standart shartnoma bandlari va majburiy korporativ qoidalar andozalarini tezkor tasdiqlash; shaxsiy ma’lumotlarni himoya qiluvchi vakolatli organ salohiyatini mustahkamlash.

3. «Startap to‘g‘risida»gi qonun va muqobil moliyalashtirish. Startaplarni sertifikatlash, soliq imtiyozlari, kraudfanding va konvertatsiya qilinadigan qarz instrumentlarining huquqiy asoslarini yaratish; fintex, sog‘liqni saqlash va SI sohalarida tartibga solish «qum maydonchalari»ni joriy etish.

4. To‘lovlar va moliyaviy xizmatlarni ochish. Frilanserlar, IT-kompaniyalar va elektron savdo uchun xalqaro to‘lov tizimlari orqali qonuniy valyuta tushumi kanallarini ta’minlash; ochiq bank API standartlarini joriy etish; xorijiy turistlar uchun kontaktsiz to‘lovlarni kengaytirish.

5. Raqamli infratuzilma sifatini monitoring qilish. Aloqa tezligi va barqarorligi bo‘yicha mustaqil monitoring va hududiy xaritalarni ochiq e’lon qilish; qishloq joylarda keng polosali aloqani kengaytirish; elektron tijorat uchun «oxirgi mil» va ombor infratuzilmasini rivojlantirish.

6. Raqamli ko‘nikmalar milliy dasturi. Aholi, ayniqsa, ayollar va qishloq aholisi uchun raqamli savodxonlik; xizmatlar sohasidagi past malakali xodimlarni qayta tayyorlash; ingliz tili va kasbiy sertifikatlashn

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Mazmuni sharhi: https://yuz.uz/ru/news/tsifrovoy-uzbekistan-2030-osnovne-polojeniya-i-perspektiv-realizatsii. O‘zgartirish kiritgan 2021-yil 24-iyuldagi PF-6268-son Farmon: https://lex.uz/pdfs/5525182 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida (2026-yil 17-fevralda o‘z kuchini yo‘qotgan): https://lex.uz/ru/docs/6600404 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni “2030-yilgacha mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari doirasidagi islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2026–2030-yillar uchun yangilangan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi, 1-ilova): https://lex.uz/docs/8050774; https://lex.uz/docs/8050769 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
4. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 26-martdagi 1125-son Qonuni (“Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar), 2026-yil 21-yanvardagi ZRU-1115-son Qonuni (sun’iy intellekt) va SI yechimlari etikasi qoidalari (3787-son buyruq) — yuridik sharh (ikkilamchi manba). Legal 500: https://www.legal500.com/developments/thought-leadership/legislative-updates-in-the-field-of-artificial-intelligence-and-personal-data-regulation-uzbekistan/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
5. Uzbekistan AI Regulation 2026: Law ZRU-1115 Explained (PQ-358-son qaror, 14.10.2024 haqidagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi; ikkilamchi manba). Axipro: https://axipro.co/uzbekistan-ai-regulation/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
6. Baumol, W. J. (1967). Macroeconomics of Unbalanced Growth: The Anatomy of Urban Crisis. American Economic Review, 57(3), 415–426. https://www.jstor.org/stable/1812111 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
7. Bukht, R., Heeks, R. (2017). Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy. Development Informatics Working Paper No. 68. University of Manchester. https://www.gdi.manchester.ac.uk/research/publications/di/di-wp68/; https://doi.org/10.2139/ssrn.3431732 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
8. Goldfarb, A., Tucker, C. (2019). Digital Economics. Journal of Economic Literature, 57(1), 3–43. https://doi.org/10.1257/jel.20171452 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
9. Grossman, G. M., Rossi-Hansberg, E. (2008). Trading Tasks: A Simple Theory of Offshoring. American Economic Review, 98(5), 1978–1997. https://doi.org/10.1257/aer.98.5.1978 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
10. Rochet, J.-C., Tirole, J. (2003). Platform Competition in Two-Sided Markets. Journal of the European Economic Association, 1(4), 990–1029. https://academic.oup.com/jeea/article/1/4/990/2280902 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
11. Vargo, S. L., Lusch, R. F. (2004). Evolving to a New Dominant Logic for Marketing. Journal of Marketing, 68(1), 1–17. https://doi.org/10.1509/jmkg.68.1.1.24036 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
12. OECD, WTO, IMF, UNCTAD (2023). Handbook on Measuring Digital Trade, Second Edition. Paris/Geneva/Washington, DC. https://oecd-ilibrary.org/trade/handbook-on-measuring-digital-trade-second-edition_ac99e6d3-en; https://unctad.org/publication/handbook-measuring-digital-trade (murojaat sanasi: 18.10.2026).
13. World Bank (2024). At Your Service? The Promise of Services-led Growth in Uzbekistan. Washington, DC: World Bank (18.12.2024). Sahifa va to‘liq matn: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/promise-of-services-led-growth; https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099062724043033419/p50100610a6bd80681afc71502a8a950a44 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
14. Nayyar, G., Davies, E., Aviomoh, H. (2024). The promise of services-led growth in Uzbekistan. World Bank Private Sector Development Blog, 17.12.2024. https://blogs.worldbank.org/en/psd/the-promise-of-services-led-growth-in-uzbekistan (murojaat sanasi: 18.10.2026).
15. World Bank (2025). Services for Development in Uzbekistan (Competitiveness for Jobs and Economic Transformation programme brief), 29.01.2025.
https://www.worldbank.org/en/programs/competitiveness-for-jobs-and-economic-transformation/brief/services-for-development-in-uzbekistan (murojaat sanasi: 18.10.2026).
16. UNDP (2025). Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship to Harness AI. Tashkent: UNDP Uzbekistan. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_eng.pdf (murojaat sanasi: 18.10.2026).
17. UN DESA. UN E-Government Knowledgebase: Uzbekistan (EGDI, OSI, TII, HCI, 2003–2024). https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/186-Uzbekistan (murojaat sanasi: 18.10.2026).
18. UNCTAD (2024). Developing economies surpass $1 trillion mark in digitally deliverable services exports, 06.12.2024. https://unctad.org/news/developing-economies-surpass-1-trillion-mark-digitally-deliverable-services-exports (murojaat sanasi: 18.10.2026).
19. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2026). Tahlil: 2025-yil yanvar–dekabr (rus tilida). https://stat.uz/img/news/talil-2025-jil-yanvar-dekabr-ruscha-_p80763.pdf (murojaat sanasi: 18.10.2026).

20. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (2026). YaIM tuzilmasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot, 2025-yil yanvar–dekabr (dastlabki), 26.01.2026. https://stat.uz/img/news/analitika-vvp_rus_p44660.pdf (murojaat sanasi: 18.10.2026).
21. Khaydaraliev, A. (2026). ВВП Узбекистана в 2025 году вырос на 7,7% и превысил $147 млрд. Kun.uz, 24.01.2026. https://kun.uz/ru/news/2026/01/24/vvp-uzbekistana-v-2025-godu-vyros-na-77-i-prevysil-147-mlrd-dollarov (murojaat sanasi: 18.10.2026).
22. The Services Sector Remains a Key Driver of Uzbekistan’s GDP Growth. UzDaily.uz, 18.06.2025 (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari). https://www.uzdaily.uz/en/the-services-sector-remains-a-key-driver-of-uzbekistans-gdp-growth/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
23. В Узбекистане сохраняется динамичный рост объема безналичных платежей (Markaziy bank ma’lumotlari). UzA, 23.08.2026. https://uza.uz/ar/posts/v-uzbekistane-soxranyaetsya-dinamichnyy-rost-obema-beznalichnyx-platezhey_898752 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
24. Exports of services from IT Park residents reach $392.5 million (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari). UzA, 21.08.2026. https://uza.uz/uz/posts/exports-of-services-from-it-park-residents-reach-3925-million_898121 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
25. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (gov.uz) (2026). Elektron tijorat bo‘yicha axborot, 22.05.2026. https://gov.uz/ru/miit/news/view/168645 (murojaat sanasi: 18.10.2026).
26. Узбекистан в 2025 году впервые экспортирует IT-услуги на сумму $1 млрд — Шерзод Шерматов. UzDaily.uz, 21.05.2025. https://www.uzdaily.uz/ru/uzbekistan-v-2025-godu-vpervye-eksportiruet-it-uslugi-na-summu-1-mlrd-sherzod-shermatov/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
27. Узбекистан планирует увеличить экспорт IT-услуг до $5 млрд к 2030 году — Минцифры. Gazeta.uz, 23.05.2025. https://www.gazeta.uz/ru/2025/05/23/internet/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
28. Uzbekistan reaffirms commitment to finalize WTO accession in 2026. Gazeta.uz, 03.08.2026. https://www.gazeta.uz/en/2026/08/03/wto-uzb/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
29. Uzbekistan Eases Data Localization Rules to Support Global Payment Platforms. The Times of Central Asia, 06.02.2026. https://timesca.com/uzbekistan-eases-data-localization-rules-to-support-global-payment-platforms/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
30. Uzbekistan amends personal data law to facilitate global payment systems. Kun.uz, 27.03.2026. https://kun.uz/en/news/2026/03/27/uzbekistan-amends-personal-data-law-to-facilitate-global-payment-systems (murojaat sanasi: 18.10.2026).
31. Uzbekistan’s Tourism Service Exports Reach $4.4 Billion Since Start of 2025 (Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari). Fergana Agency, 08.12.2025. https://en.fergana.agency/news/143716/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).
32. Uzbekistan Welcomes 10.7 Million Foreign Visitors Between January and November 2025 (Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari). Dunyo.info, 07.12.2025. https://dunyo.info/en/turizm/uzbekistan-za-yanvar-noyabr-2025-goda-privlyok-107-inostrannyh-milliona (murojaat sanasi: 18.10.2026).
33. Spot.uz (2026). Elektron tijorat bozori haqidagi materiallar, 30.09.2026 (reklama/homiylik xarakterida; ko‘rsatkich rasmiy ma’lumot bilan solishtirilgan holda ishlatilgan). https://www.spot.uz/ru/2026/09/30/ozon/ (murojaat sanasi: 18.10.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. VI maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz










SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
"INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2026-yil 25-26-sentabr



